

O‘RTA MAXSUS VA PROFESSIONAL TA’LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN PEDIATRIYADA HAMSHIRALIK ISHI FANIDAN MALAKA TEST SINOVI TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI

I. Maqsad

Mazkur test variantini tafsilotining maqsadi kasbiy ta’lim fanlarini bilish darajasini baholashning malaka toifalari ni berish test tizimi doirasida pediatriyada hamshiralik ishi talabgorlarining bilim darajasini aniqlash va sertifikatlash uchun qo‘llaniladigan test varianti formati (topshiriqlar soni, turi, vaqt me’yori), fan mazmuni tarkibi, kognitiv ko‘nikma darajalari, baholash mezonlari va talabgorlarning tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan talablarni belgilashdan iborat.

II. Me’yoriy asoslar

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentyabrdagi **“Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”**gi 572-sonli Qarori.

III. Baholash qamrovi: mazmun sohalari

Pediatriyada hamshiralik ishi

1. Bolalarda hamshiralik ishi faniga kirish, bolalarning o‘sishi va rivojlanishi
2. Davolash profilaktika muassasalarida va go‘daklik va kichik yoshdagi bolalarga hamshiralik parvarishi
3. Kasalliklarda bola va uning oilasiga hamshiralik parvarishi
4. Yuqumli kasalliklarda bola va uning oilasiga hamshiralik parvarishi
5. Kechiktirib bo‘lmaydigan holatlarda bolalar va ularning oilasiga hamshiralik parvarishi

IV. Baholanadigan mazmun sohalar va konstuktlar

T/r	Mazmun sohalar	Konstruktlar	Ulushi (%)	Testlar soni
1.1	Bolalarda hamshiralik ishi faniga kirish, bolalarning o'sishi va rivojlanishi	O'zbekistonda pediatriya xizmatining rivojlanishi, bolalar muassasalari xodimlarining etika va deontologiyasi, bolalar bo'limining tuzilishi, ish tartibi, bola va uning oila a'zolari bilan kommunikatsion muloqot, bolalik davrlari va uning xususiyatlari, bolaning jismoniy va psixomotor rivojlanishi, anatomo-fiziologik xususiyatlarini bilishi.	7,5 %	3 ta
1.2	Davolash profilaktika muassasalarida va go'daklik va kichik yoshdagi bolalarga hamshiralik parvarishi	Oilaviy poliklinika va QVPda bolalarga hamshiralik parvarishi, oy-kuni yetilgan va chala tug'ilgan chaqaloq xususiyatlari, parvarishi, chaqaloqlarda asfiksiya, tug'ruq jarohatlari, gemolitik kasalliklar, teri va kindik kasalliklari, sepsis tushunchasi haqida ma'lumot. Muddatiga yetmay tug'ilgan chaqaloq kasalliklari va ularda hamshiralik ishi, go'daklik davri kasalliklari raxit, sapazmafiliya kasalligi. Bolalarni ovqatlantirish haqida bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim.	35 %	14 ta
1.3	Kasalliklarda bola va uning oilasiga hamshiralik parvarishi	Nafas olish a'zolari, qon aylanish tizimi a'zolari, ovqat hazm qilish a'zolari, buyrak va siydik ajratish a'zolari, qon va qon yaratish a'zolari kasalliklari kasalliklarida hamshiralik parvarishi. Endokrin tizimi kasalliklari, tayanch harakat tizimi kasalliklari, onkologik kasalliklar hamda irsiy xromosom kasalliklar, moddalar almashinuvi buzilishi patologiyalari shuningdek bolalarda tug'ma nuqsonlar turlari va kasalliklari haqida bilimlarga ega bo'lishi lozim.	30 %	12 ta
1.4	Yuqumli kasalliklarda bola va uning oilasiga hamshiralik parvarishi	Profilaktik emlashlar. O'tkir respirator kasalliklar, bolalarda sil, meningokokk infeksiyasi, difteriya, ko'kyo'tal, epidemik parotit, qizamiq, skarlatina, suvchechak, dizenteriya, gepatit, salmonellyoz, OITS lar haqida bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim.	20 %	8 ta
1.5	Kechiktirib bo'lmaydigan holatlarda bolalar va ularning oilasiga	O'tkir nafas yetishmovchiligi, o'tkir yurak yetishmovchiligi, allergik shoshilinch va komatoz holatlar, shok, koma, atrof-muhit ta'sirida yuzaga kelgan shoshilinch holatlar, gipertermik sindrom va talvasada hamshiralik	7,5 %	3 ta

	hamshiralik parvarishi	parvarishi bo'yicha haqida bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim.		
--	---------------------------	--	--	--

V. Baholanadigan kognitiv ko'nikmalar va taqsimoti

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Ulushi (%)
1.	Bilish	Fanga doir nazariy ma'lumotni, atama va qoidalarini eslab qolish, tushunish, nazariy jihatdan tahlil qila olish	25 %
2.	Qo'llash	O'zlashtirgan nazariy bilim va tushunchalarni yangi kontekstlarda (ta'limiy, muammoli vaziyat va pedagogik-psixologik holatlarda) ishlata olish	50 %
3.	Mulohaza qilish	Muayyan faktlar, dalillar va normalarni mantiqiy bog'liq tarzda tahlil qilib, jarayonlarning ketma-ketligini farqlab, vaziyatni analiz qilib, xulosalar chiqara olish	25 %

VI. Test turlari va taqsimoti

T/r	Test turi	Izohi
1.	Y1	To'rtta variantdan bittasi to'g'ri bo'lgan muqobil javobli yopiq test
2.	Y2	Tartiblangan bir nechta javoblardan to'g'rilarini topishni talab qiladigan muqobil javobli yopiq test
3.	Y3	Moslashtirishni talab qiladigan yopiq test
4.	Y4	Gap yoki jarayonlarni to'g'ri ketma-ketlikda joylashtirish talab etiladigan yopiq test

VII. Baholash mezonlari va ajratilgan vaqt

Test topshiriqlari umumiy 80 ball bilan baholanadi.

Har bir to'g'ri javob 2 ball, noto'g'ri javob esa 0 ball bilan baholanadi.

Test variantini yechish uchun 80 daqiqa vaqt me'yori belgilanadi.

VIII. Imtihon tartibi

Taqiqlangan vositalar: imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat'iyan man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

IX. Inklyuziya va moslashtirish

Alohida ta'limga ehtiyoji bor talabgorlar uchun qo'shimcha 15% vaqt beriladi. Shuningdek, topshiriqlarning berilish shakli va turi ham ularga mos va qulay shaklda taqdim etiladi.

Ko'rish sohasida imkoniyati cheklangan talabgorlar savollarni o'qib berishi

uchun maxsus texnik yordamchi bilan kelishiga ruxsat etiladi, faqat savolning to'g'ri javobini aytishi mumkin emas.

X. Tavsiya etilgan adabiyotlar

1.M.F.Ziyayeva, Z.O.Orziyeva "Bolalarda hamshiralik parvarishi" Toshkent "Fan va texnologiya" nashriyoti 2016 yil.

2.Q.Inomov, M.G'aniyeva "Pediatriyada hamshiralik ishi" Toshkent G'afur G'ulom nomidagi nashriyot 2007 yil.

3.T.S.A'zamxo'jayev, A.S. Yusupova "Bolalarda intensiv terapiya xususiyatlari" Toshkent "Tib-kitob" nashriyoti 2010 yil.

4.T.A.Daminov, B.T. Xalmatova "Bolalar kasalliklari" Toshkent "Tafakkur-Bo'stoni" nashriyoti 2012 yil.

5.B.Qoraxo'jayev, I.T.Salomov "Bolalar kasalliklari propidevtikasi" Toshkent "Yangi asr avlodi" nashriyoti 2006 yil.

6. www.ZiyoNet

7. www.med.uz.